

DOGMATIK O'QITISH METODINING PEDAGOGIK MOHIYATI VA ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti

Pedagogika yo'nalishi 3-kurs talabasi

Egamqulova Malikabonu Elyor qizi

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti

o'qituvchisi

G'aniyeva Nargiza Alijonovna

Annotatsiya: Ushbu tezisda dogmatik o'qitish metodining pedagogik mohiyati, uning o'ziga xos xususiyatlari hamda zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur metodning afzallik va kamchiliklari, uni innovatsion pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlari yoritiladi. Ta'lim sifatini oshirishda an'anaviy va zamonaviy metodlarning o'zaro uyg'unligini ta'minlash muhimligini ko'rsatadi. Tezisda dogmatik o'qitish metodining afzalliklari va cheklovlari tahlil qilinib, uni interfaol hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili ekani asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: dogmatik o'qitish, pedagogik metod, an'anaviy ta'lim, zamonaviy ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, interfaol ta'lim, pedagogik texnologiyalar, ta'lim samaradorligi, tanqidiy fikrlash, o'quv jarayoni.

Kirish: Dogmatik o'qitish metodi ta'lim oluvchilarga tayyor bilimlarni o'zgartirmasdan yetkazishga asoslangan an'anaviy pedagogik yondashuv hisoblanadi. O'qituvchi esa asosiy bilim manbai bo'lib, o'quvchilar esa berilgan ma'lumotlarni eslab qolish va takrorlash orqali o'zlashtiradilar. Mazkur yondashuv nazariy bilimlarni tizimli va qisqa vaqt ichida yetkazishda samarali bo'lsa-da, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari cheklangan. Zamonaviy ta'lim tizimi kompetensiyaviy yondashuvni ustuvor deb biladi. Shu sababli dogmatik metod

yakka holda emas, balki interfaol metodlar, muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan uyg'unlashtirilgan holda qo'llanilganda yuqori samaradorlikka erishiladi. Ayniqsa, asosiy tushunchalar, qonunlar va terminlarni o'rgatishda dogmatik metod muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism: Dogmatik o'qitish — jamoa asosida idrok etish faoliyatining ilk turi bo'lib, o'rta asrlarda keng tarqalgan. O'rta asrlarda, G'arbiy Yevropada, dogmatik o'qitishda lotin tili, Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa arab tili yetakchi o'rin tutgan. Musulmon pedagogik konsepsiyasi sezilarli intellektuallik xususiyatiga ega bo'lgan. Komillikka bilimlaridan faol foydalana oladigan odamgina erishishi mumkin deb hisoblangan. «Haqiqiy g'oyalar» (Abu Ali ibn Sino. «Donishnoma» «Bilimlar kitobi»), haqiqiy bilimlarni o'zlashtirishga ikki to'siq xalaqit qiladi: so'zlarining aniq va fikrlarining tushunarli emasligi. Mazkur kamchilikni bartaraf etishda logika alohida o'rin egallaydi. Musulmon mamlakatlarida bolani o'qitish va tarbiyalashda u tomonidan Qur'onning arab tilida yod olinishi bilim egallashning asosiy sharti hisoblangan. Bundan tashqari XV—XVII asrlarda, bir qator maktablarda fors tili ham o'qitilgan. Asosiy ta'limni bolalar maktablar — boshlang'ich maktabda olganlar (muqaddas kitobni o'qish va talqin qilish mashg'ulotlari, o'qish, yozish va hisobga o'rganganlar). Dogmatik o'qitishda o'quvchilarning asosiy faoliyatlari tinglash, o'qish, yod olish. eslab qolish va matnni so'zma-so'z takrorlashdan iborat bo'lgan.

Oliy ta'lim madrasalarda berilgan. Movarounnahrda eng yirik o'quv maskanlari sirasiga Samarqand, Buxoro, Urganch va G'ijduvondagi madrasalarni kiritish mumkin. Bu ma'rifiy markazlarning rivojlanishi XV-VII asrlarga to'g'ri kelgan. Madrasalarda, o'qitish fors tillarida olib borilgan. Talabalar majburiy tarzda arab tilini ham o'rganganlar. O'quv rejasiga grammatika, Qur'on Hadis, ritorika. logika. metafizika. geologiya. adabiyot. huquqshunoslik kabi fanlar kirgan. O'qitish asosan og'zaki shaklda olib borilgan. Biroq talabalar foydalangan o'quv adabiyotlari asta-sekin ancha ko'p qirrali, turli-tuman bo'lib boradi. Maktab ta'limi erkaklar uchun mo'ljallangan. Ammo har bir badavlat oila qiz bolani o'qitish uchun uyga o'qituvchini taklif etgan.

Dogmatik o'qitish o'rniga asta-sekin o'quv jarayonida ko'rgazmalilikni keng jalb etish natijasida tushuntirish, tushuntirish namovish etish kabi ta'lim shakllari qo'llanila boshlandi.

Ayni vaqtda, respublika hududida, faoliyat yuritayotgan zamonaviy ta'lim muassasalarida ta'limning eng muhim quyidagi uch turidan foydalanilmoqda: tushuntiruvchi-namoyish etuvchi ta'lim (u an'anaviy yoki axborot beruvchi ta'lim ham deb ataladi);

- muammoli o'qitish;
- dasturlashtirilgan ta'lim yoki kompyuterli o'qitish.

Bugungi kunda o'rta asrda keng qo'llanilgan ta'lim turlari— dogmatik va sxolastik o'qitish elementlari ham saqlanib kelinmoqda.

Xulosa: Mening fikrimcha, oldinlari ta'lim ko'proq yodlash va o'qituvchini diqqat bilan tinglashga asoslangan. O'quvchilar matnlarni so'zma-so'z yod olib, takrorlash orqali bilim olganlar. Vaqt o'tishi bilan esa ta'lim usullari rivojlanib, tushuntirish, ko'rgazmali o'qitish va muammoli yondashuvlar paydo bo'lgan. Hozirgi kunda ta'lim yanada zamonaviy bo'lib, kompyuter texnologiyalari, muammoli o'qitish va tushuntiruvchi-namoyish etuvchi usullar keng qo'llanilmoqda. Shunga qaramay, ayrim fanlarda yodlash va matnni eslab qolish kabi dogmatik o'qitish elementlari ham uchrab turadi. Demak, ta'lim tizimi zamon bilan birga rivojlangan bo'lsa-da, eski usullarning ayrim foydali jihatlari bugungi ta'limda ham saqlanib qolgan. Menimcha, eng muhim jihat — o'quvchi faqat bilimni yodlab qolmasdan, uni tushunishi, tahlil qilishi va hayotda qo'llay olishi kerak. Chunki haqiqiy bilim insonning fikrlash doirasini kengaytiradi va uni mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatadi. Shu sababli zamonaviy ta'limda an'anaviy va innovatsion usullarni uyg'unlashtirish ta'lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Pedagogika / O'quv qo'llanma. A. Munavvarov tahriri ostida. — Toshkent, O'qituvchi, 1996.

2. Oliy ta'lim: Me'yoriy hujjatlar to'plami. — Toshkent: Sharq nashriyotmatbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2001. — 18—52-betlar.
3. Ochilov M, Ochilova M. O'qituvchi odobi. — Toshkent, O'qituvchi, 1998.
4. Подласый И.П. Педагогика. Новый курс. И 2 кн. Кн. 1. — Москва, Владос, 1999.
5. Almetov N. Pedagogika: savollar va javoblar, O'quv qo'llanma. — Almata, 2001.
6. Mavlonova R va boshq. Pedagogika. — Toshkent, O'qituvchi, 2001.
7. Бабанский И. К. Методы обучения в современной школе. — Москва, Просвещение, 1985. — 205 с
8. Я. А. Комарский. Большая дидактика (Didactica Magna). — Turli nashrlar.
9. И. П. Подласый. Педагогика. — Москва: Владос, turli nashrlar.
10. В. А. Сластенин (т.р.и. о.с.и.а.). Педагогика. — Москва: Академия, turli nashrlar.
11. В. Т. Лихачев. Педагогика. — Москва: Прометей, turli nashrlar.
12. М. Н. Скаткин. Дидактика средней школы. — Москва: Просвещение.
13. Ю. К. Бабанский. Оптимизация процесса обучения. — Москва: Педагогика.
14. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Pedagogika fanidan o'quv qo'llanmalar va darsliklar.